

VIII.XIZMATLAR

2024- yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 28 262,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish 112,0 foizni tashkil etdi.



2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (16 346 birlikni) 13 192 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

XIZMATLAR SOHASINI STATISTIK HISOBI

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

Xizmatlar sohasi, moddiy ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, tovarlardan farqli o'laroq, xizmatlar asosan bir vaqtning o'zida ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi va ularni saqlash man etiladi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish ko'pincha mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan vaqtdan farqlanadi, garchi sanoatda texnik xizmat ko'rsatish roli ortib bormoqda, bu uskunalarni ta'mirlash, sotishdan keyingi xizmatlar va tovarlarni sotish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Aytish joizki, ko'p hollarda xizmatda mahsulot elementi mavjud, xuddi mahsulot sotishda xizmat elementi mavjud bo'lgani kabi.


Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

<i>Shahar va tumanlar nimui</i>	<i>mlrd so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Xorazm viloyati	28 262,0	100,0	112,0
Urganch shahri	6 258,3	22,1	112,3
Xiva shahri	773,1	2,7	112,1
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	902,2	3,2	114,0
Gurlan	813,9	2,9	114,1
Qo'shko'pir	832,7	2,9	114,7
Urganch	1 258,4	4,5	112,7
Hazorasp	1 230,1	4,4	115,4
Tuproqqal'a	356,6	1,3	112,4
Xonqa	1 116,6	4,0	115,6
Xiva	837,6	3,0	112,7
Shovot	834,1	3,0	114,3
Yangiariq	728,6	2,6	112,1
Yangibozor	612,9	2,1	113,2

**Viloyat hajmida yashirin iqtisod
hajmi hisobga olingan*

Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati

(2024- yil yanvar- dekabr)	Hajm, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	14 032,8	109,9
Urganch sh	40 533,2	110,2
Xiva sh	7 769,8	110,3
Bog'ot	5 074,4	111,7
Gurlan	5 135,0	112,1
Qo'shko'pir	4 530,4	112,7
Urganch	5 828,5	110,3
Hazorasp	5 913,8	113,3
Tuproqqal'a	5 943,0	109,8
Xonqa	5 577,3	113,5
Xiva	5 348,9	110,5
Shovot	4 583,2	112,3
Yangiariq	5 870,9	110,2
Yangibozor	6 575,7	111,4

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o'rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Bog'ot va Urganch tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan tumanlar: Urganch va Urganch tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Urganch va Urganch tumanlari hamda, Xiva shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Qo'shko'pir, Bog'ot va Hazorasp tumanlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA ISHLAB CHIQRILGAN XIZMATLAR

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an’anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o‘z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o‘ziga xos aloqalar bilan bog‘langan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari

<i>Xizmat turlarining nomi</i>	<i>Xizmatlar hajmi, mlrd so‘mda</i>		<i>Ulushi, % da</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
	<i>2023- y yanvar- dekabr</i>	<i>2024- y yanvar- dekabr</i>		
Xizmatlar – jami	22 601,2	28 262,0	100,0	112,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	720,7	1 040,6	3,7	134,3
moliyaviy xizmatlar	3 389,2	4 048,3	14,3	114,0
transport xizmatlari	3 134,9	4 164,3	14,7	111,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 912,7	3 899,3	13,8	108,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	8 109,2	10 285,5	36,4	111,1
savdo xizmatlari	3 470,8	4 136,4	14,6	112,8
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	375,9	451,8	1,6	111,6
ta’lim sohasidagi xizmatlar	733,6	809,5	2,9	99,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	408,9	476,0	1,7	109,2
ijara xizmatlari	206,3	254,3	0,9	100,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	655,6	805,1	2,9	111,1
shaxsiy xizmatlar	525,3	662,0	2,3	109,9
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	191,7	239,7	0,9	102,2
boshqa xizmatlar	679,1	888,5	3,1	114,4

***Viloyat hajmida yashirin iqtisod
hajmi hisobga olingan**

2024- yil yanvar – dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlari 14,3 %, transport xizmatlari – 14,7 %, savdo xizmatlar – 14,6 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 36,4 %, ni egallaydi.


Taqqoslash uchun: 2023- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 15,4 %, transport xizmatlari – 13,9 %, moliyaviy xizmatlar – 15,0 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 35,9 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

Savdo xizmatlari – hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlar orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlar uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 4 136,4 mlrd so‘mga yetdi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘shish sur‘ati 112,8 % ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 14,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi, mlrd so‘mda



**Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmi
(2024-yil yanvar-dekabr)**

Shahar va tumanlar	Hajm mlrd so‘mda	O‘shish sur‘ati, 2023- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	4 136,4	112,8
Urganch shahri	757,3	119,7
Xiva shahri	209,6	110,3
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	222,6	113,2
Gurlan	252,8	112,7
Qo‘shko‘pir	243,4	113,5
Urganch	345,6	103,5
Hazorasp	292,3	110,1
Tuproqqal‘a	104,8	112,2
Xonqa	257,6	105,7
Xiva	205,9	108,4
Shovot	212,0	112,3
Yangiariq	202,0	108,5
Yangibozor	166,3	116,9


**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

Avtomobil transporti xizmatlari

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 164,3 mlrd. so‘mga yetdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘shish sur‘ati 111,0 % ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 14,7 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

<i>Shahar va tumanlar (2024- yil yanvar-dekabr)</i>	<i>Xizmatlar hajmi, mlrd soʻmda</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>
Xorazm viloyati	4 164,3	100,0	111,0
Urganch sh	826,8	19,9	111,6
Xiva sh	104,6	2,5	115,9
Bogʻot	291,1	7,0	107,6
Gurlan	274,6	6,6	111,7
Qoʻshkoʻpir	264,7	6,4	115,6
Urganch	335,7	8,1	118,3
Hazorasp	302,5	7,3	106,5
Tuproqqalʼa	111,6	2,7	109,6
Xonqa	383,5	9,2	119,6
Xiva	254,4	6,1	113,5
Shovot	213,5	5,1	109,4
Yangiariq	206,7	5,0	115,3
Yangibozor	208,9	5,0	111,4

**Viloyat hajmida yashirin iqtisod
hajmi xisobga olingan*

Moliyaviy xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 4 048,3 mlrd so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 14,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi (2024- yil yanvar-dekabr)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	4 048,3	100,0	114,0
Urganch sh	2 418,7	59,7	114,2
Xiva sh	64,1	1,6	112,5
Bog'ot	107,2	2,6	113,0
Gurlan	76,0	1,9	114,4
Qo'shko'pir	89,1	2,2	113,9
Urganch	163,8	4,0	114,5
Hazorasp	407,9	10,1	113,7
Tuproqqal'a	52,4	1,3	113,6
Xonqa	197,2	4,9	113,9
Xiva	142,5	3,5	114,7
Shovot	167,1	4,1	113,2
Yangiariq	107,4	2,7	112,9
Yangibozor	54,8	1,4	112,4


*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi – amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 1 040,6 mlrd so‘m darajasida qayd etildi va 2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 134,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



O‘shish sur‘ati



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Hajm, mlrd so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
Xorazm viloyati	1 040,6	100,0	134,3
Urganch sh	340,7	32,7	137,7
Xiva sh	36,9	3,5	135,4
Bog‘ot	62,1	6,0	132,6
Gurlan	56,6	5,4	134,7
Qo‘shko‘pir	65,3	6,3	133,7
Urganch	77,6	7,5	131,3
Hazorasp	72,6	7,0	134,9
Tuproqqal‘a	21,1	2,0	135,8
Xonqa	71,0	6,8	133,7
Xiva	56,2	5,4	135,6
Shovot	64,0	6,2	137,6
Yangiariq	44,7	4,3	136,3
Yangibozor	34,2	3,3	135,8

**Viloyat hajmida yashirin iqtisod*

Hajmi hisobga olingan


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar faoliyatini amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 809,5 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 99,2 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda



O'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	809,5	100,0	99,2
Urganch sh	524,7	65,4	94,6
Xiva sh	82,3	12,6	95,4
Bog'ot	17,5	2,4	128,8
Gurlan	9,6	0,9	174,7
Qo'shko'pir	16,0	2,3	114,0
Urganch	33,7	4,2	126,4
Hazorasp	14,0	1,9	107,1
Tuproqqal'a	4,0	0,5	100,2
Xonqa	25,2	3,3	116,2
Xiva	11,1	1,4	110,4
Shovot	12,8	1,4	131,2
Yangiariq	14,3	2,0	109,3
Yangibozor	13,3	1,7	115,5


*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 476,0 mlrd so'mga ya'ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,7 % iga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2023- yilda ushbu xizmatlar hajmi 408,9 mlrd so'mni yoki ularning umumiy hajmining 1,8 % ini tashkil etgan.



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, (2024- yil yanvar-dekabr)

	Hajm mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	476,0	100,0	109,2
Urganch shahri	187,4	39,4	110,0
Xiva shahri	8,1	1,7	114,8
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	6,0	1,3	111,1
Gurlan	8,7	1,8	109,8
Qo'shko'pir	9,1	1,9	101,8
Urganch	57,5	12,1	104,7
Hazorasp	5,3	1,1	108,7
Tuproqqal'a	1,7	0,4	103,3
Xonqa	10,6	2,2	110,4
Xiva	6,6	1,4	109,7
Shovot	6,8	1,4	107,1
Yangiariq	4,4	0,9	117,9
Yangibozor	3,3	0,7	114,3


**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan*

Sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi Urganch shahrida – 39,4 %, Urganch tumanida – 12,1 %, Xonqa tumanida – 2,2 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2024-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2 176,3 mlrd. so'mga oshib, 10 285,5 mlrd so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 111,1 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	10 285,5	100,0	111,1
Urganch sh	251,5	2,4	119,5
Xiva sh	102,0	1,0	129,3
Bog'ot	29,7	0,3	102,2
Gurlan	8,3	0,1	131,6
Qo'shko'pir	7,3	0,1	113,7
Urganch	83,5	0,8	132,5
Hazoras	17,3	0,2	113,3
Tuproqqal'a	6,7	0,1	119,9
Xonqa	33,4	0,3	108,4
Xiva	12,2	0,1	112,5
Shovot	30,6	0,3	105,0
Yangiariq	19,1	0,2	106,5
Yangibozor	19,5	0,2	112,6

*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan

Yashash bo'yicha xizmatlar

1,5 %


98,5 %

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 451,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etgan.



Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-dekabr)

	Hajm mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	451,8	100,0	111,6
Urganch shahri	98,4	21,8	110,3
<i>Xiva shahri</i>	21,2	4,7	118,2
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	20,8	4,6	112,8
Gurlan	22,9	5,1	105,5
Qo'shko'pir	18,7	4,1	112,0
Urganch	28,2	6,2	119,7
Hazorasp	30,3	6,7	114,4
Tuproqqal'a	8,4	1,8	113,0
Xonqa	22,9	5,1	109,2
Xiva	18,2	4,0	120,5
Shovot	21,0	4,6	113,4
Yangiariq	21,0	4,6	120,3
Yangibozor	20,1	4,5	119,9


**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan*

Shahar va tumanlar o'rtasida ko'chmas mulk bilan bog'liq ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 21,8 % ni tashkil etdi. Hazorasp 6,7 % ni va Urganch tumanida 6,2 % ni tashkil etdi. 2023-yilga nisbatan ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning o'sish sur'ati Urganch shahrida – 110,3 % ga, Xiva shahrida – 118,2 % darajasida qayd etildi.

Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

2023-yil yanvar-dekabrga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 48,0 mlrd so'mga oshib, 2024-yil yanvar-dekabrda 254,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 0,9 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil etgan.




Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlar hajmi

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	254,3	100,0	100,7
Urganch sh.	92,4	36,3	105,5
Xiva sh.	9,1	3,6	96,9
Bog'ot	14,4	5,7	100,1
Gurlan	11,6	4,6	97,0
Qo'shko'pir	11,8	4,7	100,2
Urganch	15,3	6,0	100,5
Hazorasp	12,8	5,0	98,9
Tuproqqal'a	7,9	3,1	102,2
Xonqa	13,3	5,2	100,4
Xiva	14,0	5,5	101,7
Shovot	13,8	5,4	101,1
Yangiariq	13,8	5,4	100,3
Yangibozor	11,3	4,4	102,1

* Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 805,1 mlrd so'm qayd etilib, 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	805,1	100,0	111,1
Urganch sh	144,0	17,9	122,5
Xiva sh	45,1	5,6	106,8
Bog'ot	72,1	9,0	112,3
Gurlan	43,5	5,4	110,9
Qo'shko'pir	43,0	5,3	109,8
Urganch	43,6	5,4	114,8
Hazorasp	28,9	3,6	113,4
Tuproqqal'a	12,5	1,6	115,5
Xonqa	42,2	5,2	107,7
Xiva	47,6	5,9	107,8
Shovot	37,6	4,7	107,3
Yangiariq	35,7	4,4	101,1
Yangibozor	32,8	4,1	101,4

**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi hisobga olingan*

Urganch shahrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 144,0 mlrd so'mga yetdi.


2023-yilga nisbatan Urganch shahrida o'sish sur'ati 122,5 % ni, Xiva shahrida bu ko'rsatkich 106,8 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar


Shaxsiy xizmatlar hajmi to‘qimachilik va mo‘ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash bo‘yicha, sartaroshxona va go‘zallik salonlari, dafn marosimlarini tashkil qilish xizmatlari va shu bilan bog‘liq xizmatlar jismoniy komfortni ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarni va boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa shaxsiy xizmatlarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

2023- yil yanvar-dekabrga nisbatan Shaxsiy xizmatlar hajmi 136,7 mlrd so‘mga oshib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 662,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,9 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd so‘mda



O‘shish sur‘ati



Shahar va tumanlar	Hajm mlrd so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
Xorazm viloyati	662,0	100,0	109,9
Urganch shahri	130,4	19,7	116,6
Xiva shahri	35,4	5,3	110,2
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	42,2	6,4	109,3
Gurlan	37,7	5,7	107,9
Qo‘shko‘pir	47,0	7,1	110,3
Urganch	39,9	6,0	117,5
Hazorasp	32,9	5,0	110,1
Tuproqqal‘a	8,4	1,3	106,2
Xonqa	36,1	5,5	109,7
Xiva	51,6	7,8	104,8
Shovot	39,7	6,0	106,9
Yangiariq	44,7	6,8	106,0
Yangibozor	33,4	5,0	109,0

**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Shaxsiy xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 19,7 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.